

Mirodil Mirvaxidovich HAYDAROV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrasini mudiri, Islomshunoslik
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: mirodil.uz@mail.ru*

Jasurbek Jonyigit o'g'li ABDUQODIROV

*O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi
I bosqich magistranti.
e-mail: abduqodirovjasurbek36@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHI: HAMKORLIK VA ISTIQBOLLI REJALAR

РАЗВИТИЕ ПАЛОМНИЧНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: СОТРУДНИЧЕСТВО И ПЛАНЫ НА БУДУЩЕЕ

DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN: COOPERATION AND FUTURE PLANS

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda xalqaro ziyorat turizmi sohasidagi salohiyati, xususan, mamlakatdagi ziyorat turizmi rivoji uchun zarur bo'lgan tarixiy sharoit, uning bugungi ziyorat turizmi obyekti sifatidagi o'rni, bu boradagi o'z yechimini kutayotgan vazifalar va istiqboldagi natijalar asosiy muhokama mavzusi hisoblanadi. Qolaversa, maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat miqyosida ziyorat turizmini rivojlantirish borasidagi olib borilayotgan ishlarning qisqacha bayoni keltirilgan. Shuningdek, maqolada ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ichki va tashqi hamkorlik aloqalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, ziyorat, halol standarti, hamkorlik aloqalari, ziyorat turizmi obyektlari, turistik infrastruktura, din omili.

Аннотация: В статье основное внимание уделяется потенциалу Узбекистана в сфере международного паломнического туризма, в частности, историческим условиям, необходимым для развития паломнического

туризма в стране, его роли в качестве объекта паломнического туризма сегодня, задачам, ожидающим своего решения в этом направлении, и перспективным результатам. Кроме того, в статье приводится краткое описание работы, проводимой в Республике Узбекистан по развитию паломнического туризма на государственном уровне. Также в статье представлена информация о внутреннем и внешнем сотрудничестве, осуществляемом в целях развития паломнического туризма.

Ключевые слова: паломнический туризм, паломничество, стандарты халяль, международное сотрудничество, объекты паломнического туризма, туристическая инфраструктура, религиозный фактор.

Abstract: The article focuses on the potential of Uzbekistan in the field of international pilgrim tourism, in particular, the historical conditions necessary for the development of pilgrim tourism in the country, its role as an object of pilgrim tourism today, the challenges awaiting their solution in this direction, and promising results. In addition, the article provides a brief description of the work carried out in the Republic of Uzbekistan to develop pilgrim tourism at the state level. The article also provides information on internal and external cooperation carried out in order to develop pilgrimage tourism.

Keywords: pilgrimage tourism, pilgrimage, halal standards, international cooperation, objects of pilgrimage tourism, touristic infrastructure, religious factor.

Bugungi kunda har bir sohani isloh qilish bilan birga, yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqish yangilanayotgan O'zbekiston davlatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakat iqtisodiyotini, aholi turmush tarzini, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday sohalardan biri turizmning "ziyosat turizmi" tarmog'idir.

Covid-19 pandemiyasi davrida barcha sohalarda inqiroz yuzaga kelgan bo'lsada, ularning birortasi turizm kabi zarar ko'rmadi. Shunga qaramay, 2020- yilda O'zbekistonga 1 mln 504 ming turist tashrif buyurib, ularga 261 mln dollarlik xizmat ko'rsatilishiga erishildi. 2021-yilda esa, 1 mln 700 ming xorijiy sayyohni qabul qilish va xizmat sifatini yanada yaxshilash nazarda tutilgan.

O'zbekistondagi dunyoga mashhur va go'zal shaharlar ziyorat turizm infratuzilmasini barpo etish, sayyohlar uchun barcha kerakli shart-sharoitlarni yaratish, ziyorat turizm brendini ishlab chiqish bo'yicha yetarli salohiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, O'zbekistonda 7300 dan ortiq madaniy yodgorliklarning mavjudligi va ularning ko'plari UNESCO tomonidan e'tirof etilishi [1;3] ham O'zbekistonning ziyorat turizmi sohasida ichki va xalqaro sayyohlarni madaniy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va osori atiqalar hamda tarixiy obidalar majmualariga tashrifini ta'minlash borasida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy soha rivojiga ham ta'sir qiladi[7].

Ziyorat amali (زيارة – arabcha) payg'ambarlar, so'fiy va avliyolar, ulug'vor shaxslarni qadamjo va qabrlarini ziyorat qilish, diniy muhitda qad ko'targan maqbara va madrasalar, masjidlar hamda haj ziyoratlarini o'z ichiga qamrab oladi[2;31]. Islom tarixining dastlabki davrlarida ziyorat amali haj va umra amallarini bajarish bilan bog'langan edi. Keyinchalik u nafaqat ikki muqaddas joyni ziyorat qilish, balki musulmonlar hamda dunyoning turli joylaridan kelgan sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan, islom dini mafkurasi bilan uyg'unlashgan diqqatga sazovor joylarga turisti sifatida tashrif buyurishni ham o'z ichiga qamrab olgan.

Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan say-harakatlar ziyorat turizmi industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilayotgan turistik ziyoratgohlar qatorida Hazrati Imom majmuasidagi "Mo'yi muborak" muzeyida asl holida saqlanayotgan Usmon mus'hafi, Samarqandda joylashgan Ulug'bek madrasasi va Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning amakivachchasi Qusam ibn Abbos qabri, Amir Temur maqbarasida joylashgan Go'ri Amir, Samarqand shahridan 15 km uzoqlikdagi Payariq tumanida joylashgan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi hamda Buxoro shahrida joylashgan "Yetti pir"¹ va Bahouddin

Naqshband maqbarasi, Surxondaryoda joylashgan Hakim at-Termiziy majmuasi kabi qadamjo maskanlarda ziyoratchilar uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda[2;31]. Shuningdek, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy-ma'naviy merosi hamda an'analarini o'rganish maqsadida tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarga 2 oygacha bo'lgan muddat bilan beriluvchi ziyorat vizasi (*Pilgrim visa*- turistik faoliyat sub'ekti va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita arizasi bo'yicha O'zbekistonning madaniy-tarixiy, diniy-ma'rifiy merosi va qadriyatlarini o'rganish uchun tashrif buyuruvchi chet el fuqarolariga ikki oy muddatga beriladigan ziyorat vizasi) joriy etildi. Buning natijasida, 2018-2019 yillarda Indoneziyadan tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi 170 %, Malayziyadan 158 %, Turkiyadan 154 %, BAA dan keluvchi sayyohlar soni 153 % ga oshishiga erishildi. Mazkur raqamlar ushbu tizimda boshqa musulmon mamlakatlari bilan ham hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari katta ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda islom dinidan boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham sayyoh sifatida mamlakatga tashrif buyurmoqda. Tashrifdan maqsad, birinchidan, qadim tarixda islom sivilizatsiya markazlari bo'lgan shaharlar, majmua va obidalarga sayohat qilib O'zbekistonning go'zalligidan bahra olish bo'lsa, ikkinchidan diniy ehtiyojlarni qondirish omilidir[5;7]. Jumladan, Surxondaryo viloyatida buddizm dini bilan chambarchas bog'langan, Yaponiya, Koreya va Xitoy kabi davlatlar e'tiborini tortayotgan Fayoztepa, Dalvarzintepa, undan tashqari Samarqandda faoliyat yuritayotagan katolik hamda protestant cherkovlari ham xorijlik ziyoratchi sayyohlarni jalb etishda muhim ro'l o'ynaydi.

Mamlakatda ziyorat turizmini rivojlanishi, ushbu tarmoqda halol standartlar asosida faoliyat yuritayotgan obyektlarlarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Jumladan, musulmon ziyoratchilarning tashrifini oshirish halol turizmni rivojlantirishning tarkibiy qismlari sifatida Halol standartlari asosida faoliyat yurituvchi mehmonxona va ovqatlanish joylari, restoranlar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi vazifalarni kun tartibiga qo'yadi[4;3]. Aks holda, ba'zi mehmonxona va ovqatlanish joylarida halol standarti joriy qilinmaganligi natijasida mamlakatga islom o'lkalaridan keluvchi mehmonlarda salbiy taassurotlar hosil bo'lishi mumkin. Shu maqsadda

¹ Tariqat vakillari: Abduxoliq G'ijduvoni, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari.

mamlakatda umumiy ovqatlanish shahobchalari va restoranlarida «Halol» standartini amaliyotga joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, 2018-yilda ISO 22000 va "Halol" oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha umumiy qo'llanma" O'z DSt3286:2018 davlat standarti rasman joriy etildi. "Halol" standartlari mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va qadoqlash jarayonlariga islom qoidalariga binoan talablarni belgilaydi. Bu esa mamlakatda ishlab chiqaruvchilariga mahsulotlarni sotish bozorini kengaytirish hamda ziyorat turizmini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu sohada faoliyat yuritmoqchi bo'lgan restoranlar ham rag'batlantirilmoqda. Misol uchun, qonunchilikka ko'ra, "Halol" yo'nalishiga o'rnatilgan tartibda ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari foydalanishga topshirilgan kundan e'tiboran 3 yil muddatga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'i, shuningdek, yagona soliq to'lovini 50 foizini to'lashdan ozod etiladi.

Jahon maydonida yangi qiyofada ko'rinish berayotgan O'zbekistonda turizm sohasida, xususan ziyorat turizmi yo'nalishida rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikga erishish va istiqbolli rejalarni amalga oshirish borasida qator amaliy ishlar joriy etib kelinmoqda. Ana shu maqsadda 2019-yil 21-23 fevral sanasida Samarqand va Buxoro shaharlarida birinchi Xalqaro ziyorat turizmi forumi o'tkazildi. Forumda 34 davlatdan 120 dan ortiq xorijlik mehmonlar ishtirok etdi. Halol va Ziyorat turizmi yo'nalishi ekspertlari "O'zbekistonni ziyorat turizmining markazlaridan biri sifatida e'tirof etish to'g'risida"gi Buxoro deklaratsiyasini imzoladi.

2019-yil 31 oktyabr – 7 noyabr kunlari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo hududlari bo'ylab Naqshbandiya sayyohlik festivali bo'lib o'tdi. Festivalda dunyoning turli mamlakatlaridan, xususan Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, AQSh, Janubiy Afrika va boshqa mamlakatlardan 250 dan ziyod naqshbandiya so'fiy tariqatining izdoshlari ishtirok etishdi. Festival doirasida sayyohlar Abduxoliq G'ijduvoni, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari, Mir Arab madrasasi va Kalon masjidi, Imom al-Buxoriy, Xoja Ahror, Imom

Abu Mansur al-Moturidiy yodgorlik majmualari, Shohi Zinda me'moriy majmuasi, Samarqanddagi Registon maydoni va Ulug'bek rasadxonasi, shuningdek Termizdagi Imom Termiziy kabi tarixiy va muqaddas majmualarga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish vazifalari davlat miqyosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon loyihasida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi muhim tashabbuslar ilgari surilgan:

- Ota-onalar, qarindoshlar, qariyalar va ustozlar bilan birgalikda sayohat qilishni nazarda tutuvchi besh ish kunidan kam bo'lmagan "oilaviy ziyorat ta'tili" tizimi joriy qilinadi;

- Ziyorat turizmi yo'nalishida to'g'ri targ'ibotni yo'lga qo'yish va ziyorat obyektlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida Ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish kengashi tashkil etiladi;

- Buxoro va Samarqand viloyati hokimliklari tashkiliy tuzilmasi shtatlari doirasida hokimning ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi lavozimlari joriy etiladi;

- Uzoq xorij va qo'shni respublikalardan xorijiy ziyoratchi sayyohlarni qabul qilish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi;

- Ziyorat turizmi uchun istiqbolli mamlakatlar tilini o'rganish filologiyasi yo'nalishi bitiruvchilari uchun oliy ta'lim muassasalari qoshida ziyorat turizmi mavzusida qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilinishi;

- Toshkent shahri, Olmazor tumanidagi Islom sivilizatsiya markazi joylashgan "Xasti Imom" mahallasida qadimiy ipak qog'ozi markazini tashkil etish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarning ijro etilishi nafaqat xalqaro sayyohlar uchun keng imkoniyatlar beradi, balki mamlakatda ichki ziyorat turizmini rivojlanishi va aholi ko'p qatlamining shu sohada bilimlarining o'sishida ham xizmat qiladi. Turistlar uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida jamoat joylarida tahorat va ibodat qilish joylarini tashkil qilish kabi soha rivojiga hissa qo'shadigan normalar O'zbekistonda amalda

tatbiq qilish muhim sanaladi. Chunki ziyorat turizmi bozorida o'z o'rniga ega davlatlarning deyarli barchasida ushbu yengilliklar joriy etilib kelinmoqda. Bu esa xorijdan tashrif buyurgan sayyohlar sonining ortishiga va mamlakat bo'ylab erkin harakat qilishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, Yaponiya bu borada katta tajribaga ega. Jumladan, aeroport va savdo maskanlarida ular uchun barcha qulaylik yaratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bunday imkoniyatlar sabab Yaponiyaga 2017 yilda musulmon mamlakatlaridan bir milliondan ortiq sayyoh kelgan. Albatta, bu kabi xalqaro tajribalar mamlakatda ziyorat turizmining istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda, yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Jumladan, sayyohlar tashrif buyuradigan madaniy yodgorliklarga olib boradigan yo'llarning nosozligi sayyohlar uchun noqulayliklar keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ushbu joylarda internet xizmatining yaxshi rivojlanmaganligi, ziyoratchi sayyohlarning onlayn translyatsiya xizmatlaridan foydalanishlarini cheklamoqda. Asosiysi ushbu majmualarning, masalan, Imom Buxoriy, Registon, Hazrati imom, Yetti pir kabi dunyoga mashhur muqaddas maskanlarning shaxsiy veb saytlari (o'zbek, rus, ingliz va arab tillarida) mavjud emasligi ham ziyorat turizmini rivojlanishi yo'lida yechilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Agar O'zbekistondagi har bir viloyatda joylashgan eng mashhur ziyorat turizmi bilan bog'liq obyektlarning shaxsiy veb saytlari yaratilsa, xorijdan kelayotgan yoki kelishi kutilayotgan sayyohlar ushbu majmualar haqida birlamchi ma'lumot olishlari imkoniyati ega bo'ladi. Shu bilan birga, dalillarga asoslangan ma'lumotlarni yetkazib beradigan, xorijiy tillarda mukammal so'zlasha oladigan gidlar maktabini shakllantirish juda muhim sanaladi.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash, mamlakat turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yil 23-dekabrda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti bilan ziyorat turizmini rivojlantirish va shu sohada malakali mutaxassislarni yetishtirib chiqarish borasida Anglashuv memorandumini imzoladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mintaqaviy jihatdan O'zbekiston boshqa ko'pgina davlatlar uchun tranzit yo'l vazifasini bajaradi. Bu esa xizmat

ko'rsatish sohasini rivojlantirish, turistik maskanlar haqidagi elektron ma'lumotlar bazasini kengaytirish kabi vazifalarni belgilab beradi. Shuningdek ziyoratchi sifatida tashrif buyurayotgan mehmonlar uchun "shaxsiy gigiyena"ning [3;5] (hojatxona va hammomlarning sifat va joylashuvi, atrof-muhitga e'tibor) bo'lishi ham muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khashimov, Sherakhon Jurakhanovich (2020) "PILGRIMAGE TOURISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS," Electronic Research journal of Social Sciences and Humanities: V.2: Iss.1,P.8
2. Surayyo, Usmanova (2019) "ZIYARAH TOURISM AS A NEW LINKAGE FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN," New voices from Uzbekistan, P.31
3. Tanti, Handriana (2019) "EXPLORATION OF PILGRIMAGE TOURISM IN INDONESIA," Journal of Islamic marketing, V.4: Iss.2,P.5
4. Zakiah, Samori (2012) "DEVELOPING HALAL STANDART FOR MALAYSIAN HOTEL INDUSTRY: EXPLORATORY STUDY," Procedia-Social and Behavioral Sciences, V.3: Iss.2,P.3
5. Thomas, Bausch (2020) "PILGRIMAGE AS A FIELD OF TOURISM DEVELOPMENT: THE CASE OF KAVALA (NORTHERN GREECE) AND ITS INSTITUTIONAL AND CULTURAL CHALLENGES," International journal of religion tourism and pilgrimage: V.8: Iss.3,P.7
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Batafsil: (<https://lex.uz/docs/-3548467>)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Batafsil: <https://lex.uz/ru/docs/-4143188>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon loyihasi. Batafsil: <https://regulation.gov.uz/uz/d/26583>
9. uzbekistan-geneva.ch. Batafsil: <http://uzbekistan-geneva.ch/ziyosat-turizmi-jadal-rivojlanadi.html>
10. www.uzbekembassy.in Batafsil: <http://www.uzbekembassy.in/uzbekistan-to-host-naqshbandi-tourism-festival-2019>